

Badridinova N.S

Buxoro shahar 42-maktab o'qituvchisi, BMTI tadqiqotchisi

O'zbek mumtoz adabiyotining XVII asming ikkinchi yarmi — XVIII asr boshlarida yashab, ijod etgan atoqli namoyandalardan biri Boborahim Mullo Vali o'g'li Mashrabdir. Mashrabning hayoti va ijodiy faoliyati asosan O'rta Osiyo shahar-qishloqlarida kechgan, u ishqiy, tasavvufiy, isyonkorona she'rlari bilan shuhrat qozongan, xalq qalbidan chuqur joy olib, o'zi to'g'rida hikoyat, rivoyat, naql va afsonalarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'lgan. Mashrab haqidagi eng muhim adabiy-biografik manbalardan biri, shubhasiz, «Qissai Mashrab» («Qissai Shoh mashrab») asaridir. Asar «Tazkirai qalandaron»da zikr qilingan Mashrabning darbadar hayotidagi doimiy hamrohi, muxlisi, qalandar shoir va qissanavis Pirmat Setoriy tomonidan kitobat qilingan, degan taxminlar aytiladi. Bu kitobda Mashrabning joriy nashrlardagi she'rlaridan tashqari, uning shaxsiyati, avliyosifat xatti-harakatlari, karomatlari, shakkokona qiliqlari haqida qiziqqiziq hikoyalar, rivoyatlar, naqlar, latifalar ham keltiriladi. U Mashrab adabiy merosini, she'rlarini o'z ichiga olgan asosiy adabiy manbadir. Bu qissa 1995 yili yosh adabiyotshunos Erkin Musulmonov tomonidan «Rahimbobo Mashrab va uning badiiy adabiyotdagi talqini» mavzuida yoqlangan nomzodlik dissertasiyasida tahlil etilgan.

Mashrabning qo'nimsiz, qalandarona hayoti va sarguzashtlari, imoni pokligi, sidqidildan Olloh vasliga erishishga intilishi, mutafakkir siymo sifatida shakllana boiganligi oddiy xalq dilini rom qilgan. Maleho Samarqandiyning «Muzakkir ul-ashob» tazkirasida shoiming nomi, tavallud joyi, shaxsiy va adabiy qiyofasi eslatib o'tiladi. Yana bir manba Ziyovuddin Bog'istoniyning «Tazkirai qalandaron» asaridir. Unda Mashrab rahnamoligidagi darveshqalandar shoirlar haqida fikr yuritiladi. Bu tazkira XX asming 80- yillari ma'lum bo'ldi. XVIII—XIX asrlar davomida maydonga kelgan ba'zi tarixiy asarlarda ham Mashrab to'g'risida ayrim lavhalarni, tarqoq ma'lumotlarni uchratamiz. XIX asr oxirlari —XX asrda Boborahim Mashrabga bag'ishlangan bir qancha kitob va maqolalar yozildi. Mashrab haqidagi qissa hamda unda keltirilgan she'rlardan namunalar 1910 yili N.S.Likoshin tomonidan rus tiliga tajjima qilinib, avval Toshkentda, so'ngroq Samarqandda nashr etildi. Arxeolog olim V.P.Vyatkin shoir hayoti, sarguzashtlari, qismati haqida maqola e'lon qilgan. O'zbek olimlaridan akademik G'afur G'ulomning 1959 yili bosilgan «Ikki Mashrab» maqolasi, shoirning hayoti va adabiy merosini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda Mashrab mavzui bilan bog'liq bir qancha munozarali o'rinlarga aniqlik kiritildi. Keyingi yillari ham birin-ketin o'zbek olimlaridan I.Sultonov, A.Abdug'afurov, M .Zokirov, N.Jumaev, E.Musurmonov va boshqalarning ilmiy tekshirishlari, adabiy portretlari, maqolalari e'lon qilindi; V.Rahmonov va K .Isroilov, J.Yusupov shoir asarlarining ancha mukammal nashrlarini amalga oshirdilar. Xususan, mustaqillik yillarida Mashrab haqida yuzaga kelgan adabiy portret va ilmiy ishlarda uning ijodini yangicha talqin etish va xolisona baholash tendensiyasi kuchaydi. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, XX asming 60-70-yillari yaratilgan tadqiqotlarda Mashrab ijodidagi ilohiylik mayllari, tasavvufiy ehtiroslar tahliliga yetarli e'tibor berilmagan bo'lsa, endilikda, aksincha, uning adabiy merosini, diniy-tasavvufiy qarashlarini ko'proq shu mavzu atrofida talqin qilish, uning she'riyatidagi g'urbat, afsus va xalq hayotiga achinish, real his-tuyg'ular salmog'ini yetarli darajada ko'rsata olmaslik mayli ustundek. Holbuki, biz Mashrabning faqir bo'zchi oilasida dunyoga kelgan, avval murid, keyinchalik qalandar sifatida safarlarda hayot kechirgan, xalqning og'ir ahvolidan aziyat chekkan mehribon inson bo'lganligini, insonga xos dunyoviy hamda ilohiy tuyg'ularga ega majnunsifat shaxs ekanligini unutmasligimiz kerak. U shoir — inson sifatida hamma narsa haqida o'ylagan, real inson sifatida fikr-mulshohaza yuritgan.

Inson avvalo, o'z atrofini o'rganib, hayot va koinot sirlarini bilishi natijasida, ilk irfoniylar tasavvurlari, taxayyullari ham yuzaga kelib, inson tafakkuri taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi. Borliqning barcha shakllari, ya'ni tabiat, inson, ma'naviy borliq nurga to'ladir. Olam nurga to'la bo'lib, nur-olamning nuridir.

Mabdayi nur, ya'ni nurning kelib chiqish joyi bo'lib, islom falsafasi kategoriyasi sifatida nur ilohiy haqiqat, diniy bilimlarni ifodalovchi ilohiy nur haqidagi ta'limot, g'aybiy ilm sifatida qo'llaniladi.

Islom dini yoyilishidan ancha oldin, Qadimgi Messopotamiya, Hindiston hamda Yunoniston falsafiy tafakkurida ilohiy haqiqat, ilohiy nur haqidagi ta'limotlar vujudga kelgan. Gnostiklar ta'limotida xudo va materiya o'rtasidagi tafovut tahlil qilingan. Buning natijasida gnostiklar emanasiya (ya'ni, ilohiy nurlanish), demurg haqidagi ta'limotni kiritganlar. Bu ta'limot bo'yicha, ilohiy nurlanish jarayonida ruhiylik kamayib, moddiylik ko'payib boradi.

“Avesto” kitobiga binoan, Koinot, er, okean, osmon, nurli doira va jannatdan iborat. Er dumaloq bo'lib, atrofi okean bilan o'ralgan va obu-havo, yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan etti qismdan iboratki, bu bobilliklarning etti shamollar haqidagi qadimgi tasavvurlaridan iqtibos qilingan. Osmon to'rt doiradan tashkil topgan: yulduzlar doirasi, oy doirasi, quyosh doirasi va jannat doirasi yoki nur makoni. Yulduzlar, Oy va Quyosh xudo Axura Mazdaning badani sifatida tasvirlanadi. Ular hurmatga sazovor edilar.

Ilohiy nurlanish tushunchasi Moniy ta'limotida ham muhim o'ringa ega bo'lgan. Moniy xristianlikni, zardushtiylik va boshqa sharq dinlarini o'ziga xos tarzda birlashtirishga harakat qilgan ta'limot hisoblanadi. Ushbu ta'limotda “dastlabki odam shunday bir mohiyatdagi ilohiy nurlanish natijasida vujudga kelganki, bu mohiyat, o'z navbatida undan yuqoriroq ilohiy nurlanish bosqichidan o'tgan. Jon nurining inson tanasining qulligidan qutulishi insonning qutqarilishidir”. Moniy olamning borligi va ko'rinishlari haqida to'xtalib “nur olamlariga, qadimgi insonlar va “hayot ruhiga” (ishonishga) da'vat etadi. Nur va zulmat qadimdan bor va bu ikkisi azaliy” - degan fikrni keltiradi.

Kishi o'zini tashqi olamga qarshi qo'ya turib, katta xatolikni sodir qiladi va o'zini haqiqiy, asliy tomonini bilishda o'zi to'sqinlik tug'diradi. Insonning ruhiy olami zehniy-xorijiy tomonlarining yagona asosi aslidir. O'shaning o'zi haqiqiy Nur, Aql yoki Ruhdirki, odam va qavn o'shanga bog'liq.

Nosir Xisrav she'riyatining markazida – haqiqat izlovchi, qidiruvchi shaxs turadi. Mutafakkir ilohiy nurni tahlil qilib, barcha narsalarni raqamlar kombinatsiyasi orqali tushuntirishga urinadi. Masalan uch raqamini ifodalashda Avestoning Gotlar qismidagi uchlikni eslatuvchi Oliy uchlikka taqqoslaydi. “Yagona xudo – xoliq, uning birinchi nuri – Umumiy Aql va keyingi nuri – Umumiy ruhni anglatadi”. Bahouddin Naqshbandning barcha sonlarning asosida bir soni turishi va barcha borliqning ko'rinishlarining asosi bir – ahad deyish bilan barcha zohir bo'layotgan, ko'rinayotgan narsalar ilohiy nurning tajalliyi ekanligini ta'kidlaydi.

Qur'onda nur Allohning o'zini ham anglatgan (osmonlar va er nuri) va Uni o'z payg'ambari Muhammad (s.a.v.) orqali yuborgan vahiy nuri hisoblanadi. Bu – “toza nur”, “nur ustiga nur” uni olovga qiyoslab bo'lmaydi. Chunki, u erdan tashqarida paydo bo'lgan.

Tasavvuf ta'limotida Alloh avval Muhammad alayhissalomning nurini (Aqli kull yoki nafsi kull) yaratdi. So'ngra shu nur tufayli olamlarni va odamlarni yaratdi. Demak, olamning mohiyatida avvalo Muhammad nuri tashkil qiladi. “Alloh osmonlar va erning nuridir”. Payg'ambarning nuri Uning izzat nuridan, valilar va mo'minlarning nuri esa Payg'ambar nuridan hisoblanadi. Demak, nur faqat Allohnikidir. Ushbu ikki oyatning siri ham ana shunda: “Kim kuch-qudratni istaydigan bo'lsa, bas, barcha kuch-qudrat Allohnikidir”.

“Risolai Huroiyya”da lohut olamidagi jabarut nurlarini quyidagicha tahlil qiladi: “Hurlar mening go'zalligimni tomosha qilish uchun saf tortdilar”, ya'ni Haq ta'olo hurlarni yaratib, ularga shunday husn-u jamol ato qilganki, buni Qur'onda shunday vasf qiladi: “Ularda yaxshi, go'zal hurlar bor» (Rahmon: 70-oyat.). Hazrat Muhammad mustafo s.a.v.dan shunday naql

qiladilar: «Agar o‘sha hurlardan tirnoqcha keladigan joyi uzilib, qorong‘u kechada erga tushsa, butun er yuzi yorug‘ bo‘lib ketardi. Bovujud ularning husn-u jamolini ko‘rgan kishi hazrat Izzat jalla jaloluhuning husn-u jamolidan zarracha ekanligini mushohada qilib hayratda qolar va hushidan ketar edi. Bovujud ular nurning mazharidirlar”.

تو از حور نازش اي و تو از نور تابش اي

Mazmuni:

Nurning yorug‘ligi Sendan, hurning noz-u chiroyi Sendan.

Shu nur zohir bo‘layotgan vaqtda u taajjub va hayratda qoldi. Hazrat Muhammad mustafo s.a.v. dan vorid bo‘lgan bir hadisda keladi: “النهى ما وجهه سبحات لا حترقت حجابہ کشف لو و النور حجابہ” “Uning (Allohning) hijobi nurdir. Agar hijobini echsa, yuzining yorug‘ligidan Uning ko‘zi tushgan ergacha nima bo‘lsa, hammasi kuyadi”, ya‘ni Alloh ta‘oloning hijobi nurdir. Har qanday zuhurdan nur bilan o‘ralgan Zot pokdir.

Agar nurdan bo‘lgan bu hijob echilsa, zohirda mavjud har bir narsaga jamol nuri etishi bilan u kuyadi. Bas, barcha hurlar va rizvon bu nurdan bir zarrasini mushohada qilsalar, she‘rda aytilgan holga tushadilar. Agar uni mukammal ko‘rmoqchi bo‘lsalar, payg‘ambarimiz hadisida ishora qilinganidek barchalari kuyib ketadilar.

Ilohiy nur payg‘ambar va valiylar qalbida porlab turadi. Valiylarning qalbiga Alloh nuri ilhom asosida kirgan bo‘lib, ilohiy nur orqali shunday sifatga ega bo‘lgan zotlar hisoblanadi. Naqshbandiya ta‘limotiga ko‘ra, “Valiy qalbi ma‘dani anvori jaloldir. Valiy yuzidagi nur va latofat valiy qalbidagi ana shu anvordandir. Ul nurning aksi valiyning siymosidan zohir bo‘lur va har kim uning yuziga nazar aylasa, ul kishi Haqq taoloni yod etar va uning zikriga mashg‘ul o‘lur”.

Xojagon tasavvufiy ta‘limotining falsafiy asosi “vaxdati-vujud” bo‘lib, borliq – yagona asl zotning tajalliysi, nuri deb qaraladi. Ular ta‘limoti bo‘yicha, butun borliq Haqning jamol va jalolining tajalliysi va ko‘rinishlaridir. “Qalb to‘la soflikni topganidan so‘ng, - deb yozadi Xoja Ali Romitoni, - unda vahdoniyatning nuri porlar, u tajalliy ahli bo‘lur” . Turk olimi Usmon Turorning fikricha, “vahdati vujud” aqliy dalil bilan emas, qalbiy mushohada, zavq va hol bilan erishiladigan bir “irfon” bo‘lib, aqliy nazariy emas” .

Tasavvufdagi “zot” tushunchasi zamonaviy dialektikadagi “substansiya”, “tajalli” tushunchasi esa “aksidensiya” tushunchasi bilan Yunoniston, Hindiston, Xitoy falsafasi tarixida butun mavjudotning bosh asosini ifodolovchi tushunchalardir. Substansiya tushunchasi substrat – negiz, konkret asos ma‘nosini anglatadi. Arastu ta‘limoticha, substansiya - mohiyat, barcha narsalarning real asosi, borliqni substansiya tushunchasisiz tushuntirib bo‘lmaydi, deb ta‘kidlaydi. Arastu “Kategoriyalar” da “Birinchi mohiyat bo‘lmaganida boshqa narsalarning ham bo‘lishi mumkin emas edi”, deb yozadi. Birinchi mohiyat o‘zgarimasdir.

Tajalli – “Xudoning namoyon bo‘lishi”, Allohning dunyoda namoyon etishi. Bu tushunchani dastlab basralik zohid Raboh ibn Amr al – Qaysiy (796 yilda vafot etgan) kiritgan.

Tasavvuf ta‘limotida tana va ruhdan ibort insonni ilohiy olam bilan jism olami orasidagi chegara hisoblanadi. Chunki tong ham tun bilan kunning chegarasidir. Tongdan keyin qorong‘ilik ketib, quyosh porlab chiqqaniday, inson ruhi ham asta-sekin jism qorong‘iligi-zulmatini tark etib, musaffo ruh olami, nurlar olamiga talpinmog‘i darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jaloliddin Rumi. Radiy Fish. Tarixiy-biografik roman. – 2-nashr. / Tarjimon: Jamol Kamol. –Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 2005, -B 240.
2. Jo‘zjoniy “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasining 2004 yil 47-son
3. Juzjoniy A.Sh. Tasavvuf va inson. - Toshkent: Adolat, 2001. - 192 b.;
4. Jo‘raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. –T.: “Ma‘naviyat”, 2008. –B. 345.
5. Jo‘shon M.A. Islom, tasavvuf va axloq. / Turkchadan S.Sayfullah tarjimasini. – Toshkent, 1999;

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

6. Jo‘shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. – Toshkent: “Cho‘lpon”, 1998;
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiev. – Toshkent: Yulduzcha 1989, -B. 414.
8. Ibn Arabiy, Tahzib ul-Axloq. Kuvayt: Olamul fikr, 1986, -B 13.
9. Idris Shax. Sufizm. -M.: 1994, -S 94
10. Ijtimoiy siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati. N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: “Sahhof”, 2021. - 304 b.